



IKKINCHI JAHON URUSHIDAN SO'NG MIRZACHO'LDA YANGI YERLARNING O'ZLASHTIRILISHI VA AHOLINING HUDUDIY JOYLASHUVI

Jo'rayev Ilxom Baxriddin o'g'li
Guliston davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ikkinci jahon urushidan keyin Sovet hokimiyatining O'zbekistonda qo'riq yerlarni o'zlashtirish uchun olib borgan aholini ko'chirish siyosati haqida fikr yuritiladi. Unda shuningdek yangi yerlar (Mirzacho'l)ga aholini ko'chirish uchun o'tkazilgan targ'ibot ishlari, mehnat migrasiyasining maishiy hayotga ta'siri, majburiy ravishda ko'chirilgan aholining iqtisodiy-ijtimoiy ahvoli kabi masalalar o'rinni olgan.

Kalit so'zlar: Mirzacho'l vohasi, Beshbuloq mavzesi, qirqlar, qarapchilar, Forish o'zbeklari, Qirqtol, Boyovut.

XX asrning ikkinchi yarmida Mirzacho'l vohasida aholi sonining ortishi vohadagi shaharlashuv – urbanizatsiya jarayonlari bilan bog'liq kechgan. Xususan, Sirdaryo viloyati aholisining 1956-2022 yillar oraliq'idagi demografik holati bo'yicha maxsus izlanishlar olib borgan U. Mirzaliyevning yozishicha, viloyatda 2009 yilgacha 5 ta shahar (ularning 3 tasi viloyatga bo'ysunuvchi maqomiga ega) va shuncha shaharcha mavjud bo'lib, ularda jami aholining 31,1% istiqomat qilgan. 2010 yilga kelib, mamlakatida yuz bergan urbanistik o'zgarishlar tufayli shaharchalar soni 25 ta, urbanizatsiya darajasi esa 43,2% etgan¹. Shu jihatdan voha mamlakatimizning bir qator hududlariga nisbatan anchagina farqli ko'rsatkichlarga ega bo'lgan bo'lsa-da, viloyat markazi Guliston shahri turg'unlari butun viloyat aholisining 10% ga yaqinini tashkil etib, bu jihatdan respublikadagi boshqa viloyatlardan ancha past turadi². Bizningcha, buning o'ziga xos sabablari bo'lib, mustaqillikning dastlabki o'nyilliklarida Sirdaryo viloyatidaning bir qator shaharlarida bo'lgani kabi Guliston shahridan ham ko'plab rus tilli aholining o'z tarixiy vatanlariga ko'chib ketishi, viloyatdagi shaharlarning tabiiy iqlimi va hokazolar shaharlarning demografik holatiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Shu o'rinda U.Mirzaliyev e'tibor qaratgan quyidagi jihat ham Sirdaryo viloyati aholisining keyingi o'nyilliklardagi holati bo'yicha tasavvurimizni kengaytiradi. Tadqiqotchining keltirib o'tishicha, 2010-yilda viloyatning 72,2 ming qishloq aholisi shahar aholisi ro'yxatiga kirgan bo'lib, bu holat Oqoltin tumanida 25,3 ming kishi, Sirdaryo va Sayxunobod tumanlarida ko'pchilikni tashkil etsa-da, ayni vaqtida Xovos, Sardoba tumanlarida birorta qishloq aholi punkti shahar maqomiga sazovor bo'limgan. Tadqiqotchining yozishicha: "Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan

¹ Мирзалиев У.Б. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятлари (Сирдарё ва Жиззах вилоятлари мисолида, 1956-2020 йй.). – Б. 112.

² Мирзалиев У.Б. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятлари. – Б. 112.



sust rivojlanganligi uning urbanistik tarkibida ham o‘z aksini topadi. Viloyatda birorta katta, ya’ni “yuzminglik” shahar yo‘q va bu borada u respublika geosiyosiy tizimida yagona hisoblanadi. Hatto viloyat markazi Guliston shahri ham bu darajaga etisha olmagan. Guliston shahrida 86,5 ming, Yangierda 39,9 ming, Xovos shaharchasida 27,7 ming aholi istiqomat qiladi. Qolgan shahar joylarning har birida 20 mingdan kam aholi yashaydi³. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, viloyatda shahar hosil qiluvchi omillar ta’sirining kuchsizligi bois katta shaharlar bo‘g‘ini shakllanmagan”⁴.

Sirdaryo viloyati aholisini tumanlar va yirik aholi maskanlari – shahar va shaharchalar kesimida ko‘rib chiqsak quydagicha manzaraga duch kelamiz:

1. **Sayxunobod tumani** (sobiq Voroshilov rayoni) – Sirdaryo viloyatining shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Sirdaryo viloyatining shimalidan Sirdaryo tumani, janubdan Guliston tumani, sharqiy tomonidan Toshkent viloyatining Oqqo‘rg‘on tumani bilan chegaradosh.

Sayxunobod tumani aholisining ko‘pchiliginı o‘zbeklar tashkil etadi (90%). Shuningdek, tumanda tojiklar, qozoqlar, ruslar, ukrainlar, armanlar, ozarbayjonlar, mesxeti turklari, tatarlar (qozon va qrim tatarlari), qirg‘izlar yashaydi. Sayxunobod o‘zbeklarining asosiy ko‘pchiligi Jizzax viloyatidan – zominliklar, baxmalliklar, forishliklar, Janubiy Qozog‘iston o‘zbeklari (Sayram, Qoramurt, Turkiston), Samarqand viloyatidan – Qo‘srbabot va Bulung‘ur tumani, qashqadaryoliklar (Kasbi o‘zbek arablari, Chiroqchi), vodiyliklar (ko‘pchiligi Namangan, Marg‘ilon, Qo‘qon, qisman Andijon).

Sayxunobodda Zomindan ko‘chgan aholining sezilarli bir qismini tashkil qilib, ular o‘zlarining urug‘ nomlarini birmuncha saqlab qolishgan. Jumladan, zominlik yuz va qirqlar, qarapchilar, Zomin yoki Beshbulloq turklari o‘z urug‘ nomlarini birmuncha eslaydilar. Shuningdek, Forish tumanidan ko‘chgan o‘zbeklar o‘g‘uzcha elementli shevada so‘zlashsalar, yuz, qirq, qarapchilar o‘zbekcha qipchoq lahjasida, Zomin turklari o‘zbek tilining qarluq shevasida so‘zlashadilar. Janubiy Qozog‘istondan ko‘chgan o‘zbeklar asosan o‘zbek tilining qarluq o‘zbekchasi va qisman o‘g‘uz va qipchoq o‘zbekchalarini aralash bir shevaga ega. Qashqadaryodan ko‘chgan aholi esa asosan qarluqcha (ayniqsa, arablar), qisman qipchoq (Chiroqchi) o‘zbekchasini saqlab qolishgan. Samarqand viloyatidan ko‘chgan Qo‘srbabot va Bulung‘ur o‘zbeklari asosan o‘zbek qipchoqchasi muloqat qilishadi.

Sayxunobod tumanida o‘zbeklardan son jihatdan keyingi o‘rinda turadigan tojiklar Jizzax viloyatining Forish tumani va Navoiy viloyatining Nurota tumanidan

³ Сирдарё вилояти статистика бошқармаси маълумотлари. // <http://sirstat.uz/uz/rasmiy.statistik>.

⁴ Мирзалиев У.Б. Ўзбекистонда тарихий-демографик жараёнларнинг ўзига хос хусусиятлари. – Б. 112-113.



(Sintob, Eyji, Mojrim), Tojikistonning O’ratepa (Istravshan)dan ko‘chib kelishgan. Sayxunobod tumanining G’alaba qishlog‘ida, Sharof Rahimov qishlog‘i va Hisor qishlog‘ida ko‘pchilikni tashkil etadilar.

XX asrning oxirlarigacha Sayxunobod tumani aholisining sezilarli bir qismini tashkil etgan qozoqlar *qarjav* urug‘idan bo‘lishgan.

2. Sirdaryo tumani – Sirdaryo viloyatining shimoliy qismida joylashgan. Shimoli-g‘arbdan Qozog‘istonning Turkiston viloyati Maqta-orol tumani bilan, shimoli-sharqdan Toshkent viloyatining Chinoz tumani, janubdan Sirdaryo viloyatining Sayxunobod va Guliston tumanlari bilan chegaradosh. Tumanda 2 ta shahar – Sirdaryo va Baxt shaharlari bor. Tumanda aholining asosiy qismi o‘zbeklar tashkil etib, asosan forishliklar, zominliklar, baxmalliklar, Farg‘ona vodiysi⁵, Janubiy qozog‘istonliklar, Toshkent shahri va viloyatidan ko‘chib kelgan aholidan iborat. Tumanda slavyanlar (rus, belorus, ukrain), tsiganlar va koreyslar ham yashashadi.

Baxt shahrida yashovchi o‘zbeklarning katta bir qismi zominliklar, ya’ni Beshbuloq turklari, vodiyliklar (Qo‘qon xo‘jalari), qisman namanganliklar, shahar atrofida esa baxmalliklari va samarqandliklar (Bulung‘ur) yashashadi. Shuningdek, shaharda Tojik-mahalla deb ataladigan aholi maskanid o‘ratepalik tojiklar istiqomat qilishadi. Baxt shahrining bir mahallasi “Turk-ovul” deb atalib, ular Zominning Beshbuloq mavzesidan ko‘chib kelishgan. O‘zbeklarning “turk guruhi”ga mansub deb bilinadigan ushbu mahalla aholisi o‘zaro bir-birlarini “avlod” deb chaqirishadi.

Sirdaryo tumanining “Malik” qishloqlar yig‘inida asosan Forish o‘zbeklari va tojiklari hamda “eroniy” deb ataluvchi turkiy tilli aholi istiqomat qilishadi. Ularning shevasi ozarbayjon tiliga anchagina yaqin keladi. Ayrim talqinlarga ko‘ra, ular Eronning Tabriz viloyatidan kelishgani uchun “eroniy” deb ataladi.

3. Sardoba (sobiq Ilich tumani, Sharof Rashidov tumani) – Sirdaryo viloyatining janubi-g‘arbida joylashgan, markazi Paxtaobod shaharchasi. Janubi-g‘arbdan Jizzax viloyatining Paxtakor tumani, sharqdan Sirdaryo viloyati Xovos tumani, shimoldan Oq-oltin tumani bilan chegaradosh. Tuman aholisining ko‘pchiligi o‘zbeklar, shu bilan birga tumanda tojiklar va qirg‘izlar istiqomat qilishadi. O‘zbek aholi baxmalliklar, forishliklar, zominliklar va Farg‘ona vodiyisidan ko‘chib kelgan⁶ aholidan tashkil topgan. Tumandagi tojik aholi forishliklar, qirg‘izlar Zomindan ko‘chgan aholi hisoblanadi.

⁵ Сатторов А. 1946-1990 йилларда Мирзачўлни ўзлаштиришда Фарғона водийси аҳолисининг кўчирилиши тарихидан // Ўтмишга назар. Махсус сон. – Тошкент, 2020. – Б. 462-468.

⁶ Сатторов А. 1946-1990 йилларда Мирзачўлни ўзлаштиришда Фарғона водийси аҳолисининг кўчирилиши тарихидан. – Б. 462-468.



Shu o‘rinda aytib o‘tish kerak, Jizzax viloyatining Zomin va Forish tumanlaridan bir guruh aholini Mirzacho‘l vohasidagi yangi tashkil etilgan tumanlariga ko‘chirilishi paytida bugungi Sardoba (sobiq Illich) tumaniga ham ko‘plab jizzaxlik aholini kelib joylashdi. Quyida 1960-1972 yillar orasida Mirzacho‘lda tashkil etilgan 6 ta ma’muriy-xo‘jalik rayon (tuman)lariga ko‘chirilgan Zomin va Forish tumanlari aholisning miqdorini keltirib o‘tamiz⁷:

Nº	Oq-oltin	Do‘stlik	Illich (Sardoba)	Mirzacho‘l	Paxtakor	Yangiyer
1	4 ming kishi	11,2 ming kishi	24,1 ming kishi	15,7 ming kishi	26,4 ming kishi	32,4 ming kishi

Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, 10 yildan ortiqroq vaqt ichida Mirzacho‘l vohasidagi 6 ta tuman aholi tarkibiga Jizzax viloyatining birgina 2 ta tumanidan 103,800 kishi kelib qo‘shilgan. Ularning katta qismi o‘zbek aholi, bir qismi esa tojik tilli aholi bo‘lgan. Mirzacho‘lga ko‘chirilgan jizzaxlik tojik tilli aholi orasida Forish tumanidagi Sintob, Mojrim, Eyji qishloqlari vakillari ko‘pchilikni tashkil etishgan.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, Mirzacho‘l vohasida XX asr boshlarigacha asosan o‘zbeklar va qozoqlar mahalliy aholi hisoblanib, ularning bir qismi ko‘chmanchi yoki yarim ko‘chmanchi chorvador aholi, bir qismi esa o‘troq dehqon aholidan iborat bo‘lgan. Xususan, Begovot, Qo‘shtamg‘ali, Uyas, Qirqtol, Boyovut va h.k. kishloqlarda istiqomat qiluvchi mahalliy aholi, rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, 550 desyatiningaga bo‘lgan hududda dexqonchilik qilishgan⁸.

Sirdaryo viloyati aholisi etnik tarkibi jihatidan ko‘p millatli hisoblana boshlagan davri XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. O‘zbek, tojik, qirg‘iz, qozoq, rus, tatar, koreys va bir necha o‘nlab etnik guruhrilar majmuasini tashkil etadi. Geografik muxiti Mirzacho‘lning janubiy-sharqiy qismini tashkil etgan, shimoliy tomonidan qozoqlar, janubiy tomonidan tojiklar bilan qo‘shnichilik chegarasida o‘rin olgan bo‘lib, Mirzacho‘lni o‘zlashtirishda hamkorlik faoliyatini olib borishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

- Комилов О.К., Маҳмудова З. О. Марказий Фарғона ва Мирзачўл ерларини ўзлаштириш тарихидан (XX асрнинг 50-70-йиллари мисолида) // Илмий хабарнома, АДУ, №1 2017.
- Мирбабаев А.К. Амулеты Уструшаны и их семантика //Роль Истаравшана в истории цивилизаций народов Центральной Азии. –Душанбе, 2002. – С. 100-102.
- “Мирзачўл этнографиясининг долзарб масалалари” мавзусида (Воҳа

⁷ Зияев Ф. С. Ўзбекистоннинг кўриқ ва бўз ерларида ерларида кишлоқ хўжалиги кадрларининг шаклланиши: тажриба, муаммолар (Мирзачўл минтақаси мисолида 1965-1970 йиллар). – Б. 49.

⁸ Голодная степь. 1867-1917 / История края в документах. Отв. ред. Станишевский А.В. – М. “Наука” 1981. – С. 58-59, 101-102; Алибеков У. XIX аср охири – XX аср бошларида Сирдарё вилояти демографияси. – Б. 17-20.



этнографиясининг жонқуяр тадқиқотчиси У.Алибеков таваллудининг 60 йиллилигига бағишланган) илмий-амалий анжуман материаллари. - Гулистон: Университет, 2022.

4. Омонжулов Т., Мирзаева Н. Мирзачўлнинг ўтмиш тарихи. – Гулистон, 2011.
5. Зияев Ф. С. Ўзбекистоннинг қўриқ ва бўз ерларида ерларида қишлоқ хўжалиги кадрларининг шаклланиши: тажриба, муаммолар (Мирзачўл минтақаси мисолида 1965-1970 йиллар). – Б. 49.
6. Сатторов А. 1946-1990 йилларда Мирзачўлни ўзлаштиришда Фарғона водийси аҳолисининг кўчирилиши тарихидан // Ўтмишга назар. Махсус сон. – Тошкент, 2020. – Б. 462-468.
7. Эрбўтаева У.С. XIX аср охири – XX аср бошларида Мирзачўл қозоқларининг ижтимоий-иктисодий хаёти ва демографияси // “Уструшона Буюк Ипак йўлида, унинг минтақалараро сиёсий – иқтисодий ва маданий муносабатларни ривожлантиришдаги ўрни (антик ва ўрта асрлар даврида)” мавзули республика конференцияси материаллари. – Гулистон, 2016. – Б. 117-120.
8. «Ўзбек халқи давлатчилиги тарихи концепцияси» // O‘zbekiston tarixi. – Тошкент, 1999. – №1. – Б. 31-34.
9. Saodat, I. “Ko ‘k’ leksemasining etimologik tavsifi. О ‘ZBEKİSTON, 75.
10. Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: тарих ва ҳозирги замон» Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари I-қисм. – Т., 2007.